

BOLALARNI TARBIYALASH VA RIVOJLANTIRISHDA FAOLIYATLARNING ROLI

Raxmonova Sojida Muxammadovna

Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi,

Ro'ziyeva Shaxnoza Rajabovna

Buxoro viloyati Vobkent tumani 5-son DMTT direktori raxmonovasojida9@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada faoliyat turlari, mazmuni, mohiyati va maqsadi, bola shaxsini shakllantirishdagi o'rni, o'yin faoliyati, mehnat va ta'limiy faoliyatlar ular orasidagi uzviylik, ta'limiy o'yinlar bolalarning amaliy faoliyati sifatida e'tirof etilishi, va samarasi, uning xususiyatlari, olinadigan natijalar haqida umumiy ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Faoliyat, qobiliyat, muvaffaqiyat, kompetensiya, salohiyat, qadriyat, kompetentlik, faollik, tafakkur, tasavvur.

Аннотация: В данной статье между собой связаны виды деятельности, их содержание, сущность и цель, их роль в формировании личности ребенка, игровая деятельность, трудовая и учебная деятельность, развивающие игры признаются практической деятельностью детей, и общие сведения об эффекте, его характеристиках, полученных результатах.

Ключевые слова: Деятельность, способность, успех, компетентность, потенциал, ценность, компетентность, активность, мышление, воображение.

Annotation: In this article, the types of activities, their content, essence and purpose, their role in the formation of a child's personality, play activities, the coherence between work and educational activities, recognition of educational games as children's practical activities, and general information about the effect, its characteristics, the results obtained.

Key words: Activity, ability, success, competence, potential, value, competence, activity, thinking, imagination.

Bolaning faolligi ijtimoiy hayotni tajribani o'zlashtirishga yordam beradi, buning evaziga uning bilish darajasi oshib boradi, o'yin faoliyati, eng oddiy mehnat va o'quv faoliyatlari, shuningdek, xilma-xil faoliyat turlari, muomala madaniyati shakllanadi. Bola turlicha faoliyatlarni o'zlashtirib, faollik ko'rsatadi va ayni shu faoliyat bilan bog'liq bilimlar, malaka, ko'nikmalarni o'zlashtiradi. Harakatlar evaziga unda xilma-xil qobiliyatlar va shaxs xususiyatlari shakllana boradi.

Faoliyat - shaxsning moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratishda ijtimoiy sohadagi ma'lum bir maqsad sari qiladigan xatti-harakatlar majmuasidir.

Faoliyat - insonni belgilangan maqsadlarga erishishidir. Faoliyat bu - bir narsaga erishish uchun harakat qilish jarayoni hisoblanadi.

Bolaning faoliyatdagi faolligi uni faqat tarbiya obyektiga emas, tarbiya subyektiga ham bog'liq. Bu bolani tarbiyalash va rivojlantirishda faoliyatning yetakchilik rolini belgilaydi. Bolalarni rivojlantirish va tarbiyalashda yosh bilan bog'liq davrlarida faoliyatning turlari xilma-xil bo'ladi. Har bir bosqichda faoliyatning yetakchi turi ajratiladi, unda bolaning rivojlanishidagi asosiy yutuqlar namoyon bo'ladi.

Biz bilamizki har bir faoliyat mavzusi, maqsadi, ehtiyoji, sabablari, faoliyat vositalari, uni amalga oshiriladigan harakatlar bilan va nihoyat, natijasi bilan ajralib turadi. Ma'lum bir faoliyatni bola asta-sekin va kattalar yordamida, pedagoglar

yordamida ular rahbarligida egallaydi. Bola faoliyatining xilma-xilligi uni o'rab turgan ijtimoiy muhitga ya'ni oilaga, maktabgacha ta'lim tashkilotiga, bolaning rivojlanishi uchun yaratilgan ta'limiy sharoitlariga bog'liqdir. Bolaning ilk yosh davridagi dastlabki faoliyatlar juda oddiy (bu davr hissiy- predmetli davr deb ataladi) bo'lib uning shaxsiy qobiliyatlarini, xususiyatlarini va atrofdagi narsalarga munosabatini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ilk yoshda bolalarning kattalar bilan munosabatlarida uning tasavvurlari, ehtiyojlari, qiziqishlari rivojlanib, shakllanib boradi. Yangicha harakatlar, usullarini egallab borgan sari bolalarning faolligi oshib boradi. Faollik darajasi faqatgina harakatga emas, bolalarning taqlidchanligiga, irsiy jihatlariga ham bog'liq. Ilk yoshda bolalarning asosiy faoliyat turi kattalar bilan munosabatga kirishish va buyumlar bilan ish olib borishdan iboratdir. Pedagog bolalar bilan muomalada bo'lar ekanlar, ularni buyumlar dunyosiga olib kiradi va shu yo'l bilan bolalar o'ziga xos buyumlar bilan bog'liq faoliyatni egallaydilar.

Buyumlar bilan bog'liq faoliyatni tashkil etishda ham oila ham maktabgacha ta'lim tashkiloti birdek mas'uldir. Chunki aynan bu faoliyat jarayonida bolaning barcha bilish jarayonlari, aqliy faoliyati, maqsadlari va xulq-atvori rivojlanadi. Bu faoliyatda bolalar tarbiyachilar rahbarligida buyumlarning xususiyatlari, ular bilan qilinadigan harakatlar to'g'risida dastlabki bilimlarni o'zlashtira boshlaydilar. Bola aynan ikki yarim yoshga to'lganda esa buyumlar bilan bog'liq faoliyat va muomala anchagina rivojlangan bo'ladi va bolada sekin-asta o'yin va tasviriyl faoliyatga o'ta boshlaydi.

Bolalar bilan olib boriladigan muloqot va faoliyatlarda o'zini-o'zi anglashning dastlabki shakllari shakllanadi. Bola atrofdagi odamlarga diqqat qaratishni boshlaydi, o'z imkoniyatlarini tushuna boshlaydi. Bu davr bolaning o'zini-o'zi anglashning dastlabki shakllari, xulq-atvor shakllanishning boshlanishi deya olamiz.

Bolalarning ilk yoshdagi barcha faoliyatdagi faolligi va mustaqilligi bevosita kattalarning ishtiroki va ta'siri ostida ro'y bersa, 4-6 yoshli bolalarning turli faoliyatlari tobora mustaqil, bolaning xohishlariga, istaklariga ko'ra amalga oshiriladi. Bunda ongning roli oshadi va bolada ijodiy rivojlanish shakllanadi.

Bizga ma'lumki, maktabgacha ta'lim yoshida yetakchi bo'ladigan o'yin faoliyatida maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy, bilish faolligi rivojlanadi. O'yin - o'quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos hisoblanadi. O'yin maktabgacha yoshda yetakchi faoliyatdir. O'yin orqali ta'lim olish bolalarni ta'lim olishi va rivojlanishining yondashuvlaridan biridir. O'yin - bu bolani o'zini va atrofidagi dunyoni o'rganishga undashning tabiiy usuli. O'yin bolaning shaxsiyati, uning bilish, ijtimoiy-hissiy, ijodiy va jismoniy jihatlarini rivojlantiradi. O'yinda bolalarning tengdoshlari va pedagogi bilan o'zaro munosabati nutq va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi, uning motorikasi takomillashib boradi.

O'yin shunday bir faoliyat turiki, u boshqa bolalar bilan hamkorlikda ta'lim olish imkoniyatini yaratadi, bolani mulohaza qilish, tavakkal qilish, xato qilish va qiyinchiliklarni yengish imkonini beradi. Va, eng muhimi, o'yin ta'lim olish jarayonini maroqli, quvonchli qiladi, bolalarning tasavvurini va ijodkorligini rivojlantiradi. O'yinlar bolaning yoki bolalar guruhining tashabbusi bilan erkin yoki pedagog tomonidan tashkil etilgan qoidali ko'rsatmalari bo'ladi.

Ta'lim va tarbiya jarayoni o'yin o'ynash imkoniyatini ta'minlashi kerak, rivojlantiruvchi muhit esa o'yin o'ynash imkoniyatiga hissa qo'shishi lozim. Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'yin uchun sharoit yaratish, ya'ni bolalarni yetarli vaqt, joy, resurslar va o'yinchoqlar bilan ta'minlash juda muhimdir. Pedagog-tarbiyachi rahbarligidagi ta'limiy o'yin faoliyatlari vaqtida bolalar narsa-buyumlar haqida, ularning xususiyatlari haqida va unga oid barcha ma'lumotlar to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtiradilar, shu bilan birga turli harakat usullarini bajaradilar. Bolalar joy, vaqt munosabatlarini, o'xshashlik, bir xillikka oid tushunchalarni anglab yetadilar, bolaning kompetensiyasi o'sib boradi.

Kompetensiya - bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir.

Kompetentli bola - o'z bilim, ko'nikma va malakalarini muayyan vaziyatda safarbar qilishi va qo'llashi, o'z maqsadiga erishishi va rivojlanishning har bir bosqichida yoshiga mos keladigan vazifalarni hal qilishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berishda kompetensiyaviy yondashuv o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan, axloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, atrofdagi insonlar bilan muloqot qilish, "Men" obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko'zda tutadi.

6-7 yoshli bolalarda o'yin faoliyatining mazmuni xilma-xil bo'ladi va har tomonlama rivojlanish imkoniyatlari ortib boradi. O'yin xayolni rivojlantirishga, atrofdagi voqealar, kattalar mehnati haqida, shaxsning ijtimoiy moslashuvchanligi kabi xususiyatlarini shakllantirishga ko'maklashadi. O'yin bolaga zavq bag'ishlaydi va uning ehtiyojlarini qondiradi.

Ta'limiy faoliyatlardagi barcha harakatlar bolada atrof haqida, ijtimoiy turmush, insonlar, narsa-hodisalar haqidagi bilimlarni o'zlashtirishga, shuningdek aqliy va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Egallangan bilimlar va rivojlangan aqliy qobiliyatlar bolalarning turli o'yinlarida va mehnat faoliyatlarida foydalanib boriladi. Bularning barchasi bola shaxsining rivojlanishiga ta'sir etadi, ularning faoliyatni yanada mazmunli, qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi.

Maktabgacha yosh davridagi ehtiyojlar, his-tuyg'ular, sabablar, maqsadlarni tarbiyalash va rivojlantirish juda mashaqqatli ish hisoblanadi. Tarbiyachining muntazam, manzilli faoliyatni tashkil etishi oqibatida maqsad samarali amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytish joizki, har bir faoliyat turining mazmuni va maqsadi mavjud bo'lib, bolaning shaxsiyati, uning bilish, ijtimoiy-hissiy, ijodiy va jismoniy tomonlarini, tengdoshlari bilan o'zaro munosabatni, nutq madaniyati va ijtimoiy ko'nikmalarni, shaxsiy kompetensiya rivojlantirish, maktab ta'limiga sifatli tayyorlash, bolani butun hayoti davomida takomillashib boradigan bir qator xususiyatlarni namoyish ettirishida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyot:

1. E.A. Migranova, Sh.X. Poziova Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish / O'quv qo'llamna. - Toshkent: "Tafakkur bo'stoni", 2018 y. - 200 bet

2. I.V. Grosheva, L.G.Yevstafeva, D.T.Maxmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi T: 2022.

3. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, M.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika".-T., "Ma'naviyat". 2019 y.- 688 bet

4. Sh.A. Sodiqova "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur sarchashmalari" T:. 2013 y.- 288 bet.

5. N.M. Qayumova "Maktabgacha pedagogika", "TDPU" nashriyoti T:. 2013 y- 184 bet.

6. A.A. Xoliqov. Pedagogik mahorat. Darslik. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: Iqtisod-moliya, 2011 y. -420 bet.

7. G.Niyozov, M.E.Axmedova. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. O'quv qo'llanma. - T.: "Noshir" 2011 y. -140 bet.

8. M.E. Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. (Pedagogika tarixi). O'quv qo'llanma. O'zR oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Tafakkur bo'stoni, 2011y. -128 bet.

9. N.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik.– T.: "Iqtisod-moliya" 2009 y. – 240 bet.

10. B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika. Darslik. – T.: "Sano-standart", 2017 y. - 434 bet.

11. S.M. Raxmonova DIDACTIC POSSIBILITIES OF IMPROVING THE METHODOLOGY FOR PREPARING FUTURE EDUCATORS OF THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION FOR INNOVATIVE PROFESSIONAL ACTIVITIES. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT ISSN: 2792 – 1883 | Volume 2 No. 12

<https://literature.academicjournal.io> 16.12.2022 y.36-40 bet.

12. S.M. Raxmonova МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРГА ТАЪЛИМ БЕРИШДА КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДАШУВ. Respublika OAK. Илимий-методикалық журнал 5/1 2022 y.101-105 bet

13. S.M. Raxmonova PREPARING THE GRADUATE STUDENTS OF PRIMARY EDUCATION FOR INNOVATIVE PROFESSIONAL ACTIVITY. Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 8, August, 2023. 288-293 bet

14. S.M. Raxmonova PRACTICAL FEATURES OF PREPARING PRIMARY EDUCATION STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY. SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM, 2(9), 67–71. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8314153>

15. S.M.Raxmonova (2023). ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К ИННОВАЦИОННОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2(23), 92–94 с. <https://in-academy.uz/index.php/zdit/article/view/19974>